

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **6473,1** mlrd.so'mni, o'sish **8,3 %**ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati – **103.3%** ni tashkil etdi
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi -**17,7%** ni tashkil etdi
- Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini soni - **1676** birlikni tashkil etadi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida respublika korxonalaridan 6473,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 6,9% ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 22,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 10,6 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning – 64,0 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 242,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,7 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'ycha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan -26,3% ga, gaz kondensati – 19,1 % ga va tabiiy gaz – 13,8 % ga oshganligini kuzatish mumkin.

Yanvar - sentyabr oylarida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Ohoktosh, t	130424,0	103281,7	126,3
Gaz kondensati, ming t.	139,87	117,43	119,1
Tabiiy gaz, mln.kub.m	4760,21	4182,09	113,8

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5775,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 89,2 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan kislorod ishlab chiqarish -67,4% ga, tozalangan guruch – 2,5 martaga, aroq -9,2% ga, paxtadan iyigirilgan ip – 13,5% ga, polietilen – 3,4% ga, polipropilen -10,2% ga, karbonat dinatriya-7,2% ga, yumshoq bug'doy uni-1,8%ga oshganligini va paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan), yumshoq bug'doy uni ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

***Yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik
sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Paxta tolasi, t	33180	42720	77,7
O'simlik yog'i (tozalangan), t	8036,9	9829,3	81,8
Tozalangan guruch, t	3772,0	1527,4	247,0
Yumshoq bug'doy uni, t	57381,2	56367,7	101,8
Aroq, m.l. 100% spirt	3019,6	2765,6	109,2
Bug'doy noni, t	1868,4	2530,5	73,8
Makaron mahsuloti, t	2201,0	3254,8	67,6
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, t	30889,2	29046,7	106,3
Tsement.beton yoki suniy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va binolar va inshootlar uchun boshqa buyimlar,t	500,0	297,9	167,8
Yul qoplamalari uchun asfaltli aralashmalar, t	21037,0	37000,0	56,9
Paxtadan iygirilgan ip, t	3001,5	2643,7	113,5
Kislorod, ming.m3	7,7	4,6	167,4
Karbonat dinatriya, ming.t.	138,02	128,71	107,2
Polietilen, t.	290875,95	281266,39	103,4
Polipropilen, t.	76388,87	69325,78	110,2

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 359,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida issiqlik energiyasini ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,8 %, ga kamayishi va elektr energiyani ishlab chiqarish 2,1 %, oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 96,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5% ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 2,1 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 19,0% ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 48,3% ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab- quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1033,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 3,7%, ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 16,0% ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish



2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 34,2% dan 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 35,9% ga oshishi kuzatilmoqda.


Yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Nukus shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 70,5% dan ulushini), Taxiatoch (5,0%), Xo'jayli (3,2%), Amudaryo (3,1%), Mo'ynoq (3,0%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Shu bilan birga eng kam ulushi Taxtako'pir (0,3 %), Shumanay (0,3 %), Nukus (0,4 %), va Ellikqal'a (1,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Qorao'zak (2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 166,9 % ga), Mo'ynoq (125,8 % ga), Amudaryo (117,8 % ga), Taxiatioch (112,9 % ga) va Qonliko'l (112,6 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida respublikalar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Nukus shahrida (14614,6 ming so'm), Mo'ynoq (6377,4 ming so'm), Taxiato'sh (4462,6 ming so'm) tumanlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (3495,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha aholi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari




Hududlar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Qorao'zak (2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 165,6 % ga), Mo'ynoq (124,6 % ga) va Amudaryo (115,8 % ga) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Ellikqal'a (98,2%) tumanida o'sishning past sur'atlari kuzatildi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,2 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 17,7% tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Nukus (99.9 %), Qorao'zak (99.98 %) va Taxtako'pir (99.98 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nukus shahrida (5,2 %), Taxiatosh (4,0 %), Mo'ynoq (7,6 %) va Qonliko'l (29,4 %) tumanlarida kuzatildi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyastirish.


Tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiyallar ishlab chiqarishni mahalliyastirish dasturining amalga oshirilishi respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishiga o'z tasirini kurasatti, mazkur dastur doirasida 3202,3 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib 303,5 mln. AQSH dollari mig'dorida mahalliyastirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

Mahalliyastirilqan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 martaba oshishi kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda respublikada 1676ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 430 ta korxonalar Nukus shahriga, 125 ta Amudaryo, 162 ta Beruniy, 44 ta Qonliko'l, 89 ta Qorao'zak, 32 ta Kegeyli, 103 ta Qo'ng'iro't, 45 ta Mo'ynoq, 50 ta Nukus, 67 ta Taxiatosh, 21ta Taxtakopi'r, 195 ta To'rtko'l, 95 ta Xo'jayli, 50 ta Chimboy, 51 ta Shumanay va 117 ta korxonalar Ellikqal'a tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik



Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida respublikada 366 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib, ulardan qariyb 80 % Nukus shahri, Amudaryo, Beruniy, Qo'ng'iro't, Qorao'zak, Taxiato'sh, To'rtko'l va Ellikqal'a tumanlariga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

Gulmurzaeva T.

Aloqa telefoni:

(0371) 230-82-09